



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ

THE MINISTRY OF HEALTH
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT PHARMACEUTICAL
INSTITUTE



XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE

**“FARMATSEVTIKA SOHASINING
BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR
VA ISTIQBOLLAR”**

MAVZUSIDAGI MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ

**«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

ABSTRACT BOOK OF THE
**“MODERN PHARMACEUTICS:
ACTUAL PROBLEMS AND
PROSPECTS”**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE**

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”**

MAVZUSIDAGI V XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

**МАТЕРИАЛЫ V МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

**ABSTRACT BOOK OF THE 5TH INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”**

**«IBN-SINO»
TOSHKENT – 2024**

61.	ПРОЦЕСС МАСШТАБИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ГЕЛЯ <u>Зуфарова З.Х., Юнусова Х.М.</u>	60
62.	ТРАНСФЕРСОМЫ ИНДОМЕТАЦИНА – ПЕРСПЕКТИВНАЯ ЛЕКАРСТВЕННАЯ ФОРМА НАРУЖНОГО ПРИМЕНЕНИЯ Н. Азимова, М. Эргашева, Д. Муйдинова.....	61
63.	ИЗУЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ И УСЛОВИЙ ХРАНЕНИЯ КАПСУЛ «ЛЕОФЛОМИС» <u>Умарова Ф.А., Ризаев К.С., Олимов Н.К.</u>	62
64.	HERNIARA GLABRA O'SIMLIGI YER USTKI QISMIDAN AJRATIB OLINGAN TRITERPEN SAPONINLARNI QURITISH SHAROITLARINI O'RGANISH. Sanoyev A.I., Chulpanov K.A.*, Makhmudkhonova N.S.*.....	63
65.	DETERMINATION OF THE VITAMIN CONTENT IN TWO TYPES PLANTS OF THE GENUS <i>HELIOTROPIMUM</i> OF THE FLORA OF UZBEKISTAN S. Omonova ¹ , O.D. Matchanov ² , R.S. Esanov ² , S.F. Aripova ³	64
66.	GYURZAMID SURTMA DORI VOSITASI UCHUN ASOS TANLASH <u>Kamilov H.M., Ramazonova Sh.Sh</u>	65
67.	“ГЕРО НИИВС” КАПСУЛАСИНИНГ ТАРКИБИ ВА ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ. ^{1*} Эшмуратов З. Н., ^{2*} Убайдуллаева Х.А.....	65
68.	РАЗРАБОТКА НОВЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ Абдурахмонова М.Ш., Соатов М.М.	66
69.	YERQALAMPIR (<i>ARMORACIA RUSTICANA</i>) O'SIMLIGIDAN EKSTRAKT OLISH VA UNING TAHLILI. Tashmammedova Sh.S., <u>Tursunova S.Z.</u>	67
70.	МЕТРОНИДАЗОЛ ВА ЧАКАНДА МОЙИ САҚЛОВЧИ МАЖМУАВИЙ СТОМАТОЛОГИК ПОЛИМЕР ПАРДАЛАР БИОСАМАРАДОРЛИГИ ВА СИФАТИНИ БАҲОЛАШ Турсева Г.М., <u>Арипова Н.Х.</u>	68
71.	ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ЛЕДЕНЦОВ ИЗ СУХОГО ЭКСТРАКТА АСТИЛЬБЫ КИТАЙСКОЙ <u>Жаббарова Ш.А., Зупарова З.А., Исмоилова Г.М.</u>	69
72.	ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СЫРЬЯ АСТИЛЬБЫ КИТАЙСКОЙ Жаббарова Ш.А., Зупарова З.А., Исмоилова Г.М.....	70
73.	MURAKKAB TARKIBLI YO'TALGA QARSHI QIYOM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH Adxamova M., Rizaeva N.M.....	71
74.	DERMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO'LLASH UCHUN MO'LJALLANGAN SURTMANING FIZIK KIMYOVIY XOSSALARINI O'RGANISH <u>Habibullayeva N. H., Ziyamuhamedova M.M., Saidova M.Ya.</u>	72
75.	ANEMIYAGA QARSHI YIG'MA ASOSIDA QIYOM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH <u>Tashmuxeamedova M.A., Fayzullaeva N.S.</u>	72
76.	MAHALLIY DORIVOR O'SIMLIKLAR ASOSIDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI YALLIG'LANISH KASALLIKLARIDA ISHLATISHGA MO'LJALLANGAN MURAKKAB TARKIBLI BFQ TEXNOLOGIYA - SINI ISHLAB CHIQISH <u>Pazilbekova Z.T., Yarkulova Yu.M., Tashpulatova N.X.</u>	73

chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, jahon bozorida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirishga qaratilgan tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirildi. Natijada 146 ta mahalliy farmatsevtik korxona tomonidan 2000 xildan ortiq dori-darmon vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2016 yil yakunlari bo'yicha mamlakatimiz farmatsevtika bozorida mahalliy dori-darmon vositalarining ulushi 55 % ni tashkil etadi. Yuqorida keltirilganlarni hisobga olib, bugungi kunda mahalliy xom ashyolar asosida kam zaharli immunitetni to'g'rilovchi, modda almashinuvini tubdan yaxshilovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega dori preparatlarini yaratish farmatsevtika texnologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Anemiya kasalligini oldini olish va davolashda qo'llaniladigan yig'ma asosida qiyom tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va sifatini baholash.

Materiallar va tekshirish usullari. Anemiya kasalligini davolash va oldingi olish maqsadida Toshkent farmatsevtika instituti dori turlari texnologiyasi kafedrasi hodimlari tomonidan quyidagi tarkibdagi yig'ma ishlab chiqilgan: arpabodiyon mevasi - 0,1 g, katta zubturm bargi - 1,0 g, gazanda bargi - 1,0 g, sachratqi ildizi - 1,0 g, na'matak mevasi - 1,0 g, qora qaraqat mevasi - 1,0 g, quritilgan uzum mevasi (maiz) - 10,0 g, qizil lavlagi mevasi - 20,0 g. Anemiya kasalligini davolashda tavsiya etiladigan qiyom tarkibiga kiritish uchun o'simlik xom ashyosi tarkibidan biologik faol moddalarni ikki xil usulda ajratib olindi - suvli (70° S haroratda) va 70% etil spirtli (perkolyatsiya usulida) ekstraksiya bilan. Anemiyaga qarshi qiyom an'anaviy usulda 64% qand qiyomida tayyorlandi: qozonga hisoblangan miqdorda 64,0 g qand va 36 ml tozalangan suv solindi va qiyom hosil bo'lgunicha $60-70^{\circ}$ S haroratda 20-25 daqiqa qaynatiladi. Hosil bo'lgan ko'pik yig'ib olindi va tayyor qiyom issiq holda bosim ostida 3-4 qavat bo'z matosidan o'tkazib suzildi. Tayyor qiyomning qaynash harorati $104 \pm 1^{\circ}$ S, zichligi - $1,301-1,313 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil qildi. Qiyom xona haroratigacha sovutilib, ichiga 10% suvli ekstrakt, 0,1% limon kislotasi va 0,01% natriy benzoat qo'shib, so'ng bir xil massa bo'lgunicha aralashtirildi. Qiyom xona haroratigacha sovutilib, ichiga 1% spirtli ekstrakt, 0,1% limon kislotasi qo'shib, so'ng bir xil massa bo'lgunicha aralashtirildi.

Natijalar. Olingan qiyomlarning sifat ko'rsatkichlari o'rganildi: tashqi ko'rinishi: qiyomga o'xshash to'q qizil rangli tiniq o'ziga xos hidga ega, nordon-shirin ta'mli suyuqlik. Shuningdek qiyomning pH ko'rsatkichi (GOST 13685) - 3,5-5,5; idishni to'ldirish hajmi (OST 64492-85) - 100 dan 500 ml gacha - $\pm 1,5\%$ dan kam emas; quruq moddalar miqdori (refraktometrik usulda) - 30% dan kam emas; natriy benzoat - 0,2% ko'p emas; zichligi (piknometrik usulda) - 1,100 dan 1,300 g/sm^3 gacha deb belgilandi. Bundan tashqari qiyom og'ir metall tuzlarining miqdori (0,01% dan kam), begona moddalarning yoqligi aniqlandi; flavonoidlarning chinligini alyuminiy xlorid, temir (III) xlorid, qo'rg'oshin atsetat bilan aniqlandi. Qiyom tarkibidagi flavonoidlar yig'masi rutinga nisbatan hisoblanganida 0,1% dan kam emasning ($0,283 \pm 0,015$) miqdorini spektrofotometrik usulda aniqlandi.

Xulosalar. Tajribalar natijasida anemiyaga qarshi qiyom tarkibi va 2 ta usulda - suvdi va spirtli ekstraktlar bilan texnologiyasi ishlab chiqildi. Natijada spirtli ekstrakt qo'shib tayyorlangan qiyom texnologiyasi tayyorlanishi bo'yicha ko'pooq maqsadga muvofiq bo'ldi.

MAHALLIY DORIVOR O'SIMLIKLAR ASOSIDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI YALLIG'LANISH KASALLIKLARIDA ISHLATISHGA MO'LJALLANGAN MURAKKAB TARKIBLI BFQ TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Pazilbekova Z.T., Yarkulova Yu.M., Tashpulatova N.X.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Dolzarbli: Bugungi kunda kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanishga talab ortib borishini asosiy sababi, ilmiy tibbiyotda qo'llanilayotgan dorivor o'simlik asosida olinayotgan dori vositalari o'zining salbiy ta'siri yo'qligi, allergiya chaqirmasligi va boshqa nojo'ya ta'sirlarini kamligi bilan isbotlanadi.

Oshqozon-ichak tizimi yallig'lanish kasalliklari surunkali davolash talab etadi. Bu esa kasallikni davolashda bemorlar tomonidan doimiy ravishda sintetik preparatlarning qo'llanilishida organizmga

nojo'ya ta'sirlarning namoyon bo'lishi, kumulyatsiya va boshqa organlarga salbiy ta'sirini hisobga olgan holda uzoq qo'llash tavsiya etilmaydi. Oshqozon-ichak kasalliklarida yallig'lanishga qarshi, keng ta'sir doirasiga ega, ichish uchun mo'ljallangan dorivor o'simliklar asosida murakkab tarkibli BFQlarni tarkibini tanlash texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: Murakkab tarkibli yig'ma asosida oshqozon-ichak kasalliklarida yallig'lanishda profilaktika vositasi sifatida ichish uchun mo'ljallangan mahalliy dorivor o'simliklardan: moychechak, tirnoqgul, dalachoy o'simliklari xom ashyolari va boshqa yallig'lanish oldini oluvchi, og'riq qoldiruvchi o'simliklar asosida yangi suyuq ekstrakt (BFQ) texnologiyasini ishlab chiqish.

Usul va uslublar: Mahalliy dorivor o'simliklardan tashkil topgan murakkab tarkibli yig'ma asosida maseratsiya, perkolyatsiya, reperkolyatsiya usullarida, etil spirtini har xil konsentratsiyalarida suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish.

Natijalar: Dorivor o'simliklar (moychechak, tirnoqgul, dalachoy) xom ashyolaridan (4:4:2) nisbatda olib, turli xil usullarda (materatsiya, perkolyatsiya, reperkolyatsiya), xar xil quvvatli etil spirtida suyuq ekstrakt (BFQ) tarkibini ilmiy asosda tanlab olindi va texnologiyasi ishlab chiqildi. Turli usullarda olingan suyuq ekstraktlarning son ko'rsatkichlaridan, quruq qoldiq miqdori ekstragent sifatida reperkolyatsiya usulida 70%li etil spirtida olingan ajratmalarda-11,2% ni tashkil etdi. O'simlik xom ashyolari maydalik darajalari 3-4mm gacha bo'lganda, jarayon gidromoduli 1:12 bo'lganda, olingan suyuq ekstraktlar tarkibida flavonoidlar miqdori rutinga nisbatan qayta hisoblanganda-0,65%ni tashkil etib, yuqori ekanligini va boshqa usullardan ustun ekanligi tasdiqlandi va eng maqsadga muvofiq deb reperkolyatsiya usuli tanlab olindi.

Xulosalar: Murakkab tarkibli yig'ma asosida ajratuvchi 70%li etil spirti yordamida reperkolyatsiya usulida olingan, suyuq ekstrakt yangi BFQ bo'lib, ta'sir etuvchi moddasi flavonoidlar hisoblanadi va tibbiyotda oshqozon-ichak yallig'lanishga kasalliklarini oldini olish qo'shimcha BFQ sifatida qo'llashga tavsiya qilinadi. Suyuq ekstrakt-tiniq, sariq qo'ngir rangli o'ziga xos hidli biroq achchiq ta'mli suyuqlik. Saqlash vaqtida yengil loyqalik va cho'kma hosil bo'lishiga ruxsat beriladi. Olingan suyuq ekstraktlarning son va sifat ko'rsatkichlari: tashqi ko'rinishi, hidi, mazasi, rangi quruq qoldiq, spirt quvvati yoki zichligi, og'ir metallar va ta'sir etuvchi moddalari bo'yicha davlat farmakopeyasi (DF) va boshqa me'yoriy hujjatlarda keltirilgan usullar bo'yicha baholandi. Ta'sir etuvchi moddalar flavonoid birikmalarini yig'indisini miqdoriy tahlili YuSSX usulida rutinga nisbatan qayta hisoblash yo'li bilan aniqlandi, flavonoidlar yig'indisi 0,65mg/ml ni tashkil etdi.

Murakkab tarkibli yig'ma asosidagi suyuq ekstraktning (BFQ) sifat ko'rsatkichlari va tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalar miqdori adabiyotlarda va me'yoriy hujjatlarda keltirilgan talablarga javob berdi. Tadqiqot natijalaridan, suyuq ekstrakti sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha MH lardagi va DFning "Ekstraktlar" umumiy farmakopeya maqolalari talablariga javob berdi.

GULHAYRI ILDIZLARIDAN TIBBIYOT AMALIYOTIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Adxamova M., Rizayeva N.M.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Dolzarbligi: Shilimshiq larga boy o'simliklarga oqqaldirmoq, katta zubturm, uch rangli gunafsha va dorivor gulhayri kiradi. Ushbu o'simliklarning balg'am ko'chiruvchi ta'siri reflektor mexanizm asosida amalga oshadi: qabul qilingandan so'ng polisaxaridlar oshqozon retseptorlarini ta'sirlantiradi, bu esa reflektor yo'l bilan uzunchoq miya orqali nafas yo'llari sekretor hujayralarining faoliyatini oshiradi. Bu shilimshiq ko'p ishlab chiqarilishiga, uning yopishqoqligi kamroq bo'lishiga va yo'tal oson ajralishiga olib keladi. Balg'amning yopishqoqligi kamayishi kiprikli epiteliy hujayralarining harakat faolligini tiklaydi va mos ravishda balg'amning nafas yo'llaridan chiqib ketishiga yordam beradi. Polisaxarid saqlovchi o'simliklar, shuningdek, o'rab oluvchi, yumshatuvchi, tiklovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Gulhayri xomashyosi, ildizlari va o'tlari kimyoviy tasnifga ko'ra "shilimshiq saqlovchi o'simlik va xomashyo" guruhiga kiradi. Gulhayri ildizlarining suvda eruvchan fraksiyasi polisaxaridlar, shakarlar, aminokislotalar, organik kislotalar (taxminan 1%) ni